

BIRINCHI VA IKKINCHI SINF ONA TILI DARSLARIDA “GAP” MAVZUSINI O’RGANISHDA UZVIYLIK

Sultonova Muruvvat Abdulkarimovna,

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar 4-maktab o‘qituvchisi

Abdullajonova Muhayyo Azamjonovna,

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar 4-maktab o‘qituvchisi

guliikromova9413@mail.ru

Annotatsiya.

Mazkur maqolada birinchi va ikkinchi sinflarda gap va uning elementlari ustida ishlash va mazkur sinflarda “Gap” mavzusini o‘rganishdagi uzviylik haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar:

Gap, tinish belgilari, yozma nutq, sintaksis, ega va kesim, ohang.

Annotation.

This article discusses the work on sentence and its elements in the first and second grades, and the connection between the studies of the topic "Sentence" in these classes.

Keywords:

Sentence, punctuation, written speech, syntax, possessive and participle, tone.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются работы над предложением и его элементами в первом и втором классах, а также связь между исследованиями по теме «Приговор» в этих классах.

Ключевые слова:

предложение, пунктуация, письменная речь, синтаксис, притяжательное и причастие, тон

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o‘rganiladigan va nazariy o‘rganiladigan bilimlarga bo‘linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda “Gap”, “Darak gap”, “So‘roq gap”, “Buyruq gap”, “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Gap bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalmali gaplar” mavzulari nazariy o‘rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi. [1, 147]

Metodist olim T. G. Ramzaeva boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo‘nalishga bo‘ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo‘lgan gapning muhim belgilarini o‘rgatish).
2. Gap qurilishini o‘rgatish (so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig‘iq gaplar ustida ishlash).
3. O‘quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.
4. Gapda so‘zlarni aniq qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish.
5. Yozma nutqda gapni to‘g‘ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo‘yish) ko‘nikmasini shakllantirish. [2, 291-292]

Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf darsliklarida sintaksis bo'limiga oid mavzular, xususan "Gap" mavzusi ham birinchi sinfdayoq o'rganiladi.

Xususan, 1-sinfda sintaksis bo'limiga oid birgina "Gap" mavzusi beriladi va ushbu mavzuni o'rganish uchun reja ko'ra 8 sinf soati ajratiladi. Mazkur darslikda quyidagi qoidalar beriladi:

Gap so'zlardan tuziladi. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi. Xabar mazmunidagi gapning oxiriga nuqta (.) qo'yiladi, so'roq mazmunidagi gapning oxiriga so'- roq bel gisi (?) qo'yiladi, his-hayajon mazmunidagi gapning oxiriga undov belgisi (!) qo'yiladi. [3, 82-92]

Yuqoridagilardan anglashiladiki, o'quvchilar birinchi sinfdayoq, gap haqida ilk tasavvurga ega bo'ladilar, har bir gap bir necha so'zlardan iborat bo'lishi va har doim bosh harf bilan yozilishi hamda uning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

2-sinf Ona tili darsligida esa "Sintaksis" bo'limiga oid 3 ta mavzu beriladi. Ular:

- ✓ Gap va so'z;
- ✓ Gap;
- ✓ Gapning asosi. Gapda so'zlarning bog'lanishi.

Yuqoridagi mavzularni o'rganish uchun esa 10 soat ajratiladi.

Darslikda, shuningdek, quyidagi qoidalar keltirib o'tiladi:

Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi. Gapning oxiriga nuqta (.), so'roq belgisi (?) yoki undov belgisi (!) qo'yiladi. Masalan: Biz anhorda cho'mildik. Sen suzishni bilasanmi? Cho'milish qanday maza!

Gap tugallangan fikrni bildiradi. Gap so'zlardan tuziladi. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi. Yaxshidan bog' qoladi.

Gap biror narsa haqida xabar mazmunini bildirsa, oxiriga nuqta qo'yiladi.

Gap so'rash mazmunini bildirsa, oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. Gap kuchli his-hayajon bilan aytilsa, oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

Gap kim (kimlar) yoki nima (nimalar) haqida aytiladi va ular haqida fikr bildiradi. (Kim?) Shifokor bemorlarni (nima qiladi?) davolaydi. (Nima?) Oltin o'tda (nima qiladi?) bilinadi.

Gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'z bilan ular haqida nima deyilganini bildirgan so'z gapning asosiy mazmunini bildiradi. Bu — gapning asosi bo'ladi.

So'zlar mazmun jihatidan o'zaro bog'lanib, gap hosil qiladi. [4,

Yuqoridagilardan anglashiladiki, ikkinchi sinda o'quvchilar quyi sinfda olgan bilimlarini yana-da mustahkamlaydi. Xususan, 1-sinfda gap haqidagi ilk tushunchalar shakllantiriladi, bundan tashqari gaplar oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari haqida ilk tushunchalar beriladi. Mashqlarda berilgan gaplar orqali o'quvchilarda gapning ega va kesimini topishga ko'nikma hosil qilinadi. Mashqlarda asosan tinish belgilarini qo'yilishi yoki qo'yilgan tinish belgilar nima uchun shunday qo'yilgani haqida tushunchalar beriladi.

2-sinfda esa gap eng asosiy tushuncha sifatida beriladi. O'quvchilar 1-sinfda olgan bilimlarni mustahkamlaydilar. Bu jarayonda eng asosiy e'tibor gapning asosini topish va gap kim yoki nima haqida aytilganiga e'tibor qaratish hamda ularni tegishlicha belgilashga qaratilganidir.

Shuningdek, o'quvchilar 1-sinfda "Gap" mavzusi orqali gaplarni ohang yordamida chegaralash va gap oxiriga qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilarini o'rgansalar, 2-sinfda shu manbalarga qo'shimcha ravishda gapning asosi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapda kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob beruvchi so'zlarni va harakatni bildirgan so'zlarni savollar yordamida aniqlashni o'rganadilar. Bu orqali o'quvchilarda gapning bosh bo'laklarini kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi. Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi. 2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqida nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga

o'rganadilar. Aslida gap ning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. –T. 2009.
2. Рамзаева Т.Г., Львов М.Р. Методика обучения русскому языку в начальных классах. – М.: 1979.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. – T. 2018.
4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – T. 2018.